

SURXON O'YINLARI XUSUSIYATI HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17498782>

Normurodov Botir

*Denov tadbirkotlik va pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya

Maqolada Surxondaryoda hududida qadimdan mavjud bo'lib, bugunga qadar sevib o'ynaladigan va saqlanib qolgan o'yinlarning xususiyatlari yoritildi. O'yinlarning qoidalari haqida so'z yuritildi. Ularning yosh uchun foydalari yotirib berildi.

Kalit so'zlar

o'yin, qoida, foyda, lokal o'yinlar, predmedli o'yinlar, jamoaviy o'yinlar.

Abstract

The article highlights the characteristics of games that have existed in the Surkhandarya region since ancient times, are still loved and played today, and have been preserved. The rules of the games are discussed. Their benefits for the youth are presented.

Keywords

game, rule, benefit, local games, object-based games, team games.

Surxon xalqi qadimiy an'analarga hamda o'yinlarga boy maskanda. Bu yerda o'yn aladigan o'yinlar boshqa hududlarnikiga qaraganda biroz farqlidir. Quyida shunday o'yinlar haqida fikr yuritamiz.

“Tarabar til” ¹¹⁹o'yini bugungi kungacha vohaning ayrim hudud aholisining nafaqat bolalar, balki yoshi katta kishilar orasida ham davom etib kelayotgan so'z o'yinlaridan biri bo'lib, o'yinda guruhlariga bo'linishgan. Bu o'yinning o'ziga xos usullari shundan iboratki, har bir so'z tarkibidagi bo'g'inlarning joyi o'zgartiriladi. Masalan, “yotgan edim” so'zidagi bo'g'inlarning o'rni o'zgartirilsa, “ganyot dime” so'zi hosil bo'ladi. Bunday bo'g'inlarning o'rni o'zgartirilganda so'zlar tez talaffuz qilinganda, boshqa guruh a'zolari hech narsani tushuna olmagan.

“Quloq cho'zma” o'yini ham vohada yaxshi saqlangan. O'yin qoidasiga ko'ra o'yinboshi ro'molchaga bir necha toshchani solib, yaxshilab bog'lab, to'planganlar o'rtasiga otadi. Kim shu ro'molchani bakovul ko'rsatgan joyga olib kelib bersa,

¹¹⁹ Боровков А.К. Аист и связанные с ним приметы и поверья у местного населения //Сб. научного кружка при востфаке САГУ. Вып. II. –Ташкент, 1928. –С. 33.

o'yinda g'alaba qozongan hisoblanadi va unga atalgan sovrinlar tantanali ravishda topshiriladi. Ro'molchani endi qo'lga kiritganda, raqiblari uning quloqlaridan ushlab cho'zadilar. O'yinchilar boshlariga telpak kiyib, quloqchinini mahkam bog'lab oladilar. "Quloq cho'zma" o'yini mahalliy yoshlarning navqironlik, mardlik va jasorat ko'rsatish maktabi bo'lib kelgan. Ular davraga chiqar ekan joni og'rishiga qaramasdan, o'z maqsadi sari intiladilar. Ayni paytda u o'zbeklarning tomosha shaklidagi eng qiziqarli, ommaviy o'yini hamdir. Chunki unda o'ndan oshiq yigitlar ovuldoshlari oldida o'zlarining nimaga qodirliklarini namoyish etadilar¹²⁰.

"Podachi o'yini" uchun to'rt qadamga teng doira chiziladi. U ohak yoki bo'r bilan belgilanadi. Doira ichida uchta o'yinchi qo'lida chin cho'pon tayog'ini tutganicha turadi. Doira tashqarisida ham hujumchilar uch joyda joylashadi. Doiraning o'rtasida yog'ochdan yasalgan beshta nishon tayinlanadi. Balandligi olti sm. Ular doiraning markazida tikka qilib qo'yiladi. Nishonlarning oralig'i 10-15 sm bo'lib, aylana shaklida terib chiqiladi. Uyinda doira tashqarisidan bir metrlik uzoqlikda hujumchilar tomonidan kichik to'pi bir-biriga tez oshirilib, qulay fursat topilgach, doira ichidagi himoyachilarni chalg'itib, doira o'rtasidagi nishonlarni birin-ketin urib yiqitishga harakat qilinadi.

O'yinda himoyachilar doiradan chiqib ketmaydi. Himoyadagi o'yinchilarning tayog'i hujumchilarga tegib ketsa, himoyachi doira chizig'idan tashqariga chiqsa, jarima belgilanadi. Doira chetidagi chiziqqa koptok qo'yilib, o'rtadagi nishonni bir marta urishga ruxsat beriladi. Himoyachilar doira chizig'iga koptokni qo'yib, zarb bilan tashqariga, uzoqroqqa, urib chiqaradi. O'yin paytida guruhlardan qaysi biri 30 soniya ichida nishonni koptok bilan urib yiqitsa, shu guruh g'olib hisoblanadi. O'yinchilarning roziligi bilan o'rinlarini almashtirib, o'yinni davom ettirish mumkin¹²¹.

Bolalar o'rtasidagi "uloq" o'yini ommaviy xalq o'yinlarining eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, katta yoshdagilarning ot ishtirokidagi o'yiniga taqlid holatida vujudga kelgan. Mazkur uloq o'yini unsurlari hisoblangan ot va uloq bolalarga mos bo'lib, ot va qamchi novdadan, uloq esa echki yoki qo'y terisidan tayyorlanadi. Bu o'yin etnohududiy xarakteriga ko'ra, marrali, marrasiz turlarga bo'linadi. Yoshlar o'rtasida bugungi kunga qadar sevib o'ynaladigan o'yin turlaridan bo'lib, katta yoshlilar o'rtasidagi ommaviy xalq o'yiniga tayyorgarlik bosqichi vazifasini o'taydi. Mazkur o'yin o'zbek, tojik, turkman millatiga mansub aholi o'rtasida birdek tarqalgan bo'lsa-da, turkman bolalarining uloq o'yini

¹²⁰ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Oqtumshuq qishlog'i. 2020-yil.

¹²¹ Ushbu o'yin nafaqat chorvador aholi o'rtasida, balki dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholi yoshlari o'rtasida ham mashhurdir. Masalan, Surxondaryo viloyati Sherobod va Boysun tumanlari bolalari orasida bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

ma'lum bir jihatlari bilan farq qiladi, ya'ni ular ulog'ida, albatta, teri parchasi ishtirok etishi shart va yil bo'yi davom etishi mumkin. Buning aksi o'laroq, o'zbek va tojik bolalari o'rtasidagi ulog o'yinida predmetlar teridan bo'lishi shart emas. Shuningdek, ushbu o'yin, asosan erta bahorda dalalar ekinlar uchun tayorlanayotgan paytdagina o'ynalgan¹²².

Hunarmandchilik bilan bog'liq yana bir o'yin "*porsim pors*" yoki "*loy parsildoq*"dir. Bu o'yin, asosan, yilning issiq faslida o'ynaladi. O'yinda har bir ishtirokchi o'z loyiga ishlov berib, kulcha holiga keltiradi, kulcha holatiga keltirilgan loyning chetlari biroz yuqori qilinib, yerga uriladi. Yerga urishdan oldin tayyor loy qo'lga olinib, "*O'ng qulog'im, chap qulog'im, yorilmasang ket qulog'im*" deyiladi. Yerga urilganda, loyning o'rta qismi yoriladi va yorilgan joyga yarasha qo'shni bola loy bilan yamashi lozim bo'ladi. Shu tariqa qo'shni bola loyi ketma-ket olib qo'yiladi. Yoki, aksincha¹²³.

Mahmud Koshg'ariyning yana bir ma'lumotiga ko'ra, bolalar o'yinlari orasida qizlarga xos o'yinlar ham bo'lgan. Shu o'rinda u qiz bolalarning sevimli qo'g'irchoq o'yinlari haqida quyidagilarni keltiradi: "*quzurchoq- qo'g'irchoq*. Qiz bolalarning odamga o'xshatib yasatib o'ynaydigan o'yinchoqlari"¹²⁴. Mazkur o'yin bugungi kunda ham qo'g'irchoq predmeti bilan o'ynaladigan, ommalashgan va an'anaviyligi saqlab qolgan o'yinlar sirasiga kiradi.

U qiz bolalar o'yinlari va hozirgacha keng tarqalgan arg'imchoq o'yini haqida to'xtalib, "*jalnu - joriyalar o'ynaydigan bir xil o'yin nomi*. Shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog'lanadi, so'ng ularning biri arqon o'rtasiga o'ltiradi oyoqlarini sakratib, ba'zan yuqori, ba'zan quyi tushib uchadi (arg'imchoq)"¹²⁵.

Mahmud Qoshg'ariy qizlar bilan bog'liq o'yinlar haqida ma'lumot keltirar ekan, turkiy xalqlari orasida qizlarning har sohada yigitlardan qolishmas ekanligini ta'kidlab o'tadi. Chunonchi bu haqida quyidagi misollarni keltiradi: "*Qiz bilan o'ynashma, chunki ular kuchli va seni yengadi, yosh qisir biyalar bilan poyga qilishma, u ayg'irdan kuchlidir, u ham sening ustingdan g'alaba qiladi (seni yengadi)*. Bu maqol Xoqoniya qizlaridan biri Sulton Ma'sudning nikoh kechasi o'z erini oyog'i bilan chalib yiqitganidan keyin xoqoniylarda yuzaga kelgandir"¹²⁶.

U men bilan marvarid tizishda va she'r tuzishda bahslashdi.

Qizlar ud sozini chalishda bir-biri bilan bahslashdi.

Ular ikkovi sut sog'ishda bahslashdi¹²⁷.

122 Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Avlod, Sariosiyo, Passurxi qishlog'i. 2019-yil.

123 Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Saksonkapa, Obodon qishloqlari. 2022-yil.

124 Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. I tom... - B.367. 460.

125 41 Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. III tom... - B. 390.

126 Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. I tom... -B. 439.

127 Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk. II tom... - B. 108. 111. 256.

E'tiborli tomoni shundaki, bundan ming yil avval qizlar tarbiyasida ular o'rtasidagi marvarid tizish, she'r tuzish, ud cholish bo'yicha bahsli bellashuvlar alohida o'rin tutgan. Ular bunday bahslar orqali o'z iste'dodlarini namoyon etishga qodir bo'lganlar.

Chanta – bu o'yinning ma'nosi "nechta" degani. Tartibi: bir necha kishi bir-biriga qarama-qarshi tomonga o'tiradi. Biz ularni A va B tomon deb ataymiz. Avval tanga tashlab kim birinchi boshlashi aniqlanadi. Mabodo A tomon birinchi bo'lib boshlaydigan bo'lsa, istagan qo'lini orqaga qayirib, unga o'zi xohlagan miqdorda danak qo'yadi. So'ngra qo'lini oldinga uzatib, B tomonga "chanta", ya'ni "nechta" deydi. B tomon uning qo'lidagi danaklari nechta ekanligini ko'rmay turib taxminiy aytishi lozim. Deylik, A tomon kaftini musht qilib ichiga 5 ta danak qo'ydi. Agar B tomon 5 ta deb to'g'ri topsa, hamma danaklarni o'ziga oladi. Agar 3 ta desa o'sha beshtani to'ldirishi uchun unga o'zidagi ikki dona danakni beradi. Mabodo sakkizta deb yuborsa kaftdagi besh dona danakdan tashqari yana uchta qo'shib berishga majbur bo'ladi. Ya'ni, bu o'yinda o'zi aytgan sondagi danak chiqishi lozim. O'yin shu tartibda almashib o'ynaladi. Qo'llarida danaklari qolmagan kishi o'yindan chiqadi. Oxirida bir yoki bir necha kishi yutib chiqishi mumkin¹²⁸. Chanta o'yini bolalarni sezgirlik va topqirlikka o'rgatadi.

Jumutoq – o'yinning ma'nosi *juftmi yoki toqmi* degani. Tartibi: ikki kishi bir-biriga qarama-qarshi tomonga o'tiradi. A va B tomonlar aniqlanadi. Avval tanga tashlab kim birinchi boshlashi aniqlanadi. Mabodo A tomon birinchi bo'lib boshlaydigan bo'lsa, istagan qo'lini orqaga qayirib, unga o'zi istagan miqdorda, ya'ni juft yoki toq sondagi danak qo'yadi. So'ngra qo'lini oldinga uzatib, juftmi-toq? – deb aytadi. Agar A tomonning qo'lidagi danaklar soni 5 ta, ya'ni toq sonda bo'lsa, B tomon uning qo'lidagi toshlarni ko'rmay turib juft yoki toq deyishi lozim. Agar toq desa, A tomonning qo'lidagi hamma danaklarni o'ziga oladi. Mabodo juft deb yuborsa, A tomonga bir dona tosh beradi. Shundan so'ng o'yin almashadi va B tomon o'yinni davom ettiradi. Qaysi tomonning danagi qolmasa, o'sha o'yinchi yutqazgan bo'ladi¹²⁹. Jumutoq o'yini ham xuddi chantadagidek bolalarni sezgirlik va topqirlikka o'rgatadi.

*"Soqqa o'yini"*da ikki yoki uch nafar o'yinchi qatnashishi mumkin. Har bir o'yinchi bir kg vazndagi dumaloq shakldagi tosh oladi. Bir o'yinchi soqqani (toshni) o'zidan uzoqqa dumalatib tashlaydi. Ikkinchi o'yinchi qo'lidagi soqqa bilan tashlangan soqqani mo'ljalga olib, tekkizadi. Uyinda marra belgilanadi. Misol uchun, o'yinchi yetti martagacha sherigining soqqasiga tekkiza olmasa, u o'zining eng yaxshi soqqasini sherigiga beradi. O'yinchi soqqa turgan joydan o'tmasdan

128 Dala yozuvlari, Angor tumani, Zang qishlog'i, 2023-yil.

129 Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Sherobod mahallasi, 2020-yil.

ikkinchi o'yinchi soqqasini mo'ljalga olishi kerak. Soqqa soqqaga tegsa, o'yinchi o'z soqqasini tekkizgan o'yinchiga yana tashlab beradi. Agar soqqa tegmasa, bu o'yinchi keyingi ishtirokchiga soqqa tashlab beradi. Bunday milliy xalq o'yinlari yoshlarni sog'lom, chamalab olish qobiliyatini chuqurroq shakllantirishga qaratilgan¹³⁰.

"Besh tosh" yoki "to'ptosh" deb nomlangan o'yinga folklorshunos G'. Jahongirov o'z tadqiqotlarida poetik tavsifini bergan. Mazkur o'yinning to'la bayoni "Ming bir bola o'yini" to'plamida ham berilgan¹³¹. Ushbu o'yinning etnografik xususiyatlarini tahlil qilganda, nomlanishi "besh" soni toshlar miqdorini bildiruvchi ifoda ekanligini aytish lozim. Negaki, o'yinda beshta toshdan foydalaniladi. Toshlar soni beshta bo'lib kelishi esa qadimgi davrlardagi raqam magiyasi tushunchasiga aloqador ekanligi ma'lum.

Bu xususida folklorshunos M.Jo'rayev shunday yozadi: "Uzoq o'tmishda yashagan bolalar asta-sekin sanash usullarini takomillashtira borib barmoqlar yordamida hisoblashni ham o'rganib olganlar. Ko'p zamonlar besh raqami ibtidoiy odam faoliyatidagi eng ulkan son hisoblangan. Turmushda beshlik hisobi qo'llanilishi turli marosimlar, an'analar orqali xalq og'zaki ijodida, madaniyat yodgorliklarida chuqur iz qoldirgan"¹³². O'yinda toshlar sonining beshta bo'lib kelishi ana shu raqam magiyasi, ya'ni beshlik sanoq usuli asosida shakllangan an'analardan biridir.

Badiiy so'z vositasida ijro etiladigan tosh o'yinlaridan biri "*har xilcha*" deb nomlanadi. Uni faqat qizlar o'rtasida uchratish mumkin. Biz tadqiq etgan variant "*besh tosh*" o'yiniga o'xshab ketadi. O'yinda ikki va undan ortiq qiz ishtirok etadi. O'yinning asosiy vositasi kattaligi taxminan yong'oqdan kichikroq bo'lgan beshta toshdan iborat¹³³.

Qur'a tashlash orqali o'yinni kim birinchi boshlashi mumkinligi aniqlanadi. Bunday imkoniyatni qo'lga kiritgan ijrochi toshlarni olib kafti bilan yerga tashlaydi. Dastlab birini tepaga otib, qolganlarini barmog'i bilan yerdan olishi kerak. Bu shart tepaga otilgan tosh qaytguncha bajarilib, oxirida uni ham yerga tushirmay ilib olish kerak. So'ng navbatini bilan boshqalariga o'tiladi. Ijro jarayonida barmoqlar ham turli shakl va qiyofalarga kiritilishi yoxud tomoshabinlarni shunga ishonitirishi bilan birga ularda kulgi qo'zg'atishi lozim bo'ladi. O'yin davomida quyidagi shartlar bajariladi: yallash, kelin, bo'ri kelar, qaychi, kapa, yermi-osmon, tugar, shaldir, tovuq ko'ti, tovuq ko'tining ochari, xo'roz ko'ti, xo'roz ko'ti ochari, ko'prik, devor, supurgi, baqa, ilon, yashiq, ikki qarich, anjirzich. Ushbu shartlar

130 Muhammadiev L. Sog'intirgan xalq o'yinlari ... - B. 16.

131 Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaeva.F. Ming bir o'yin. - B. 78-82.

132 Jo'raev M. O'zbek xalk ertaklarida sexrli raqamlar. - Toshkent: Fan. 1991. - B.90.

¹³³ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Oqtumshuq qishlog'i. 2020 yil.

bexato bajarilganda “anjirzich, buralib tush, arra marra endi bitti bir marra” deb, marraga xatosiz yetib kelganligini ovoza qiladi. O‘yin xuddi shu tartibda davom etaveradi. Ijrochilarning yetib kelgan marralari yerga yozib boriladi. O‘yin so‘ngida marralar sarhisob qilinadi. Shunda kimning marrasi ko‘proq bo‘lsa, o‘yinda g‘alaba qozongan hisoblanadi. G‘oliblar mag‘lublarga turli shartlarni bajartirish huquqiga ega bo‘ladi¹³⁴.

“Besh tosh” juda murakkab o‘yinlar sirasiga kirib, u asosan, Surxon vohasida qiz bolalar tomonidan o‘ynaladi. G‘.Jahongirov nashr ettirgan kitob matnida uning elementlari quyidagi tartibda bayon qilingan: 1) bosh; 2) qapchiq; 3) bir olar; 4) ikki olar; 5) uch olar; 6) to‘rt olar; 7) do‘ppos; 8) olma; 9) mammo; 10) chiq etar; 11) chiq etmas; 12) chandiq¹³⁵.

O‘yin elementlarining bunday nomlanishi tosh bilan bajariladigan o‘yin amallarining xarakteridan kelib chiqadi. Yuqorida keltirilgan atamalarni “Besh tosh” yoki “To‘p tosh” nomi bilan o‘ynaladigan o‘yinlar turli shakllari bo‘lishiga qaramasdan o‘yin jarayoni qiz bolalarni epchil, ziyrak, zukko qilib tarbiyalash vositasi vazifasini bajaradi. Agar e‘tibor berilsa, o‘yin mukammal syujet tizimiga ega bo‘lib, an‘anaviy boshlama (ishtirokchining o‘yindagi o‘rni aniqlanishi), asosiy elementlar (“Besh tosh” bilan turli xil amallarni qo‘llab o‘ynash) va yakunlanma (“o‘yin oxiri” g‘olibni aniqlash) bosqichlari borki, bu o‘yin mazmunini va yashovchanligini oshirib kelmoqda. Shuningdek, etnohududiy, etnolokal hususiyatga ko‘ra, o‘yindagi umumiylikdan tashqari atamalarda, harakatning takrorlanish ketma-ketligida farqlar ko‘zga tashlanadi¹³⁶.

“Besh tosh” o‘yini vodiylar o‘zbek bolalari orasida ham keng tarqalgan o‘yinlardan biri bo‘lib “to‘p tosh” deb ham nomlanadi. M.S. Andreev, K.Sh. Shoniyozov kabi olimlar bu o‘yinining turli xil variantlari nafaqat Farg‘ona vodiysida balki O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalganligini qayd qiladilar.

XI asrda yashagan turkiy qavmlar orasida yong‘oq bilan o‘ynaladigan o‘yin ham bo‘lgan. Bu o‘yin “Ko‘chirma o‘yin” deb ataladi. Mahmud Koshg‘ariy ayrim qabilalar tilida bu o‘yni “o‘n to‘rt” deb ham atalishini qayd etadi. Olimning yozishicha, bolalar yerga qo‘rg‘onchaga o‘xshatib to‘rt chiziq tortib, unga o‘nta eshik qilishgan. Ana shu shaklga tosh yoki yong‘oq tashlab o‘ynaganlar¹³⁷. To‘rt chiziq va o‘nta eshik chizilganligi sababli o‘yin nomi “O‘n to‘rt” deb atalgan bo‘lsa kerak¹³⁸.

16 Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani. Oqrbuloq, Jilibuloq, Botosh mahallalari. 2022-yil.

135 Usmonxo‘jaev T.S., Xo‘jaeva.F. Ming bir o‘yin... - B.78.

18 Dala yozuvlari. Denov tumani, Anorbuloq qishlog‘i. 2022-yil

137 Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t-turk... - B.452.

138 Dala yozuvlari. Sherobod tumani, Pashxo‘rd qishlog‘i. 2023-yil.

Yong‘oq o‘yini hozirgi kunda ham o‘zbek bolalarining kuz-qish fasllarida o‘ynaydigan mavsumiy o‘yinlaridan biri hisoblanadi. Nazarimizda, “Ko‘chirma o‘yin” aslida yumaloq tosh vositasida o‘ynalgan. Keyinchalik bu predmetli o‘yinda tosh o‘rniga yong‘oqdan foydalanish an‘anasi yuzaga kelgan¹³⁹.

Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining mazkur asarida “o‘t bandal” nomli an‘anaviy xalq o‘yinini ham izohlagan. Odatda cho‘qmoqli tayoq bilan chovgon o‘yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho‘qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechasi bir birlariga o‘qtalib o‘ynaganlar. Ana shu o‘yin “o‘t bandal” deb atalgan¹⁴⁰.

Surxon vohasida bugungi kunda yong‘oq bilan o‘ynaladigan o‘yinni quyidagicha tariflashimiz mumkin. *Yong‘oq o‘yini* – o‘yinni o‘ynash uchun tekis yuzada salgina qiya joy kerak bo‘ladi. O‘sha qiya ustiga bir kosaning og‘zidek aylana shaklda chuqurcha qilinadi. Ana shu chuqurchaning ichiga to‘rt metr uzoqlikdan yong‘oq tashlanadi¹⁴¹.

O‘yin shartlari quyidagicha: o‘yin qatnashchilari sonidan qat’iy nazar imkoniyatlari darajasida yong‘oq olib kelishadi. Kimning yong‘og‘i ko‘p bo‘lsa, o‘sha do‘lboshi qilib saylanadi va chuqurchaning oldiga qo‘yiladi. O‘yinda qatnashuvchi bolalardan biri o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘yinni boshlab beradi. Chuqurchaga juft sondagi yong‘oq tashlaydi. Masalan 4 ta, 6 ta, 8 ta, 10 ta, 16 ta, 20 ta va hokazo. Agar chuqurchaga tashlangan yong‘oqlari juft sonda chiqsa do‘lboshi o‘zidagi yong‘oqdan shuncha miqdordagi yong‘oqni beradi va bola do‘lboshining o‘rniga o‘tiradi¹⁴².

Masalan, Ali ismli bola chuqurchaga 20 ta yong‘oq tashladi. Shu yong‘oqdan 10 ta yoki 12 ta, aniqrog‘i juft sondagi yong‘oq tushsa, do‘lboshi bo‘lib turgan Vali chuqurchaga tushgan o‘sha sondagi, ya’ni 10 ta yoki 12 ta yong‘oqni beradi va Alini o‘zining o‘rniga do‘lboshi qilib qo‘yadi. Mabodo Ali chuqurchaga tashlagan yong‘oqlari toq son bo‘lib chiqsa, masalan, 20 ta yong‘oqdan 19 ta yoki 15 ta bo‘lsa, shuncha miqdordagi yong‘oqni do‘lboshiga beradi. Shundan keyin o‘yinni boshqa bola boyagi tarzda davom ettiradi. O‘yin to bir kishi hamma yong‘oqni yutib olguniga qadar davom etadi¹⁴³.

O‘yinning taqdirini faqat chuqurchaga tushgan yong‘oqlargina hal qiladi. Bola chuqurchaga tushgan yong‘oqlari juft bo‘ladimi yoki toqmi, qat’iy nazar, chuqurchaga tushmagan yong‘oqlarini o‘ziga qaytarib oladi¹⁴⁴. Yong‘oq o‘yin yosh bolalarni nishonni aniq otishga, maqsadiga erishishga o‘rgatadi.

¹³⁹ Dala yozuvlari. Denov tumani tumani, Elobod qishlog‘i. 2023 yil.

¹⁴⁰ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I jild. –Toshkent: Fan, 1960. –B. 445.

¹⁴¹ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i, 2022-yil;

¹⁴² Sherobod tumani Qizilolma qishlog‘i, 2022-yil.

¹⁴³ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo‘janqon qishlog‘i, 2023-yil.

¹⁴⁴ Dala yozuvlari, Termiz tumani, M.Eshtemirov nomli mahalla, 2022-yil.

Piyoda poyga – bu o‘yin aslida musobaqa bo‘lib, to‘y va bayramlar chog‘ida uyushtirilgan. O‘rtaga sovrin tikiladi. 10 –12 nafar yigit yoki o‘smir muayyan masofaga yugurishi kerak bo‘ladi. Ularning izidan ot bilan kuzatuvchi keladi. Marraga kim birinchi bo‘lib yetib kelsa, mukofot o‘shanga beriladi. Piyoda poyga yoshlarni chaqqonlikka o‘rgatgan¹⁴⁵.

Eshak ko‘pkari – bu o‘yinda qishloqning o‘smir yoshdagi bolalari qatnashishadi. Unda bir xaltaga somon yoki jun tiqib, o‘rtaga tashlanadi. Eshaklarga minib olgan bolalar ana shu xaltani olib boshqalardan ajralib chiqishi kerak. Shundagina u g‘olib sanaladi¹⁴⁶. O‘yin o‘smirlarni bo‘lg‘usi ko‘pkari o‘yinlariga tayyorlagan.

O‘ymanko‘ch – tog‘ qishloqlarida keng tarqalgan va endilikda unutilgan o‘yin turi. O‘yindan oldin o‘rtaga yutuq tikiladi. Non, qaymoq, bulamoq, choy va hokazo. Shundan so‘ng ikki kishi bir-biriga qarama-qarshi o‘tiradi. Biz ularni A va B tomon deb nomlaymiz. Marraga yetish uchun istalgan son, masalan 100 yoki 200 ta tosh yig‘ishga kelishib olinadi. Bunda har bir ishtirokchi o‘zining tomonida piyolaning aylanasi kattaligidek 5 ta, jami 10 ta chuqurcha qazadilar. So‘ngra har bir chuqurchaga 5 tadan tosh tashlanadi¹⁴⁷. O‘yinni kim boshlashini aniqlash uchun qur’a tashlanadi. Oldin tepaga tanga otiladi. Agar A tomon tanganing ustini tanlagan va tanga ham shunday usti bilan tushsa, o‘yinni A tomon boshlaydi. Agar teskari tomoni tushsa, B tomon boshlaydi¹⁴⁸.

O‘yinda boshlovchi tomon istagan chuqurchadan beshta toshni olib boshqa chuqurchalarga navbatma-navbat bir donadan tashlayveradi. Oxirgi toshni qo‘yganidan so‘ng, keyingi chuqurchadagi toshlarni olib navbatdagi chuqurchalarga boyagi usulda tashlayveradi. Shuni unutmaslik kerakki, qo‘lidagi oxirgi toshni tashlagan chuqurchadan toshlarni olmaydi, balki keyingilarni oladi. Shu tarzda bir necha chuqurchadan toshni olib boshqa chuqurchalarga toshlarni bir donadan tashlayveradi. Oxiri ikki yoki uchta chuqurcha bo‘shab qoladi. Bo‘sh chuqurchadan oldin turgan chuqurchaga oxirgi toshni tashlay ololsa, bo‘sh chuqurchadan keyingi chuqurchadagi toshlarni o‘ziga oladi. Shundan keyin, o‘yinni uning sherigi boshlaydi. U ham boyagi tartibda o‘yinni davom ettiradi. Xohlagan chuqurchaga toshni tashlaydi va galma-gal keyingi chuqurchalarga tosh tashlashda davom etadi. O‘ziga nasib etgan chuqurchadagi toshlarni olgach, o‘yinni A tomon boshlaydi. Shu tarzda chuqurchalardagi toshlar to‘liq tugaguniga qadar o‘yin davom etaveradi. Ba‘zan 10 ta chuqurchada uch yoki beshta toshcha qolganidan so‘ng o‘yinni davom ettirishga

¹⁴⁵ Dala yozuvlari, Termiz tumani, M.Eshtemirov nomli mahalla, 2022-yil.

¹⁴⁶ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo‘janqon qishlog‘i, 2023-yil.

¹⁴⁷ Dala yozuvlari. Sariosiyo tumani Sangardak qishlog‘i, 2021-yil.

¹⁴⁸ Dala yozuvlari. Termiz tumani Manguzar mahallasi. 2021-yil.

hojat qolmaydi. Shundan so'ng har bir tomon o'ziga nechta tosh olganini hisoblaydi. Deylik chuqurchalardagi toshlar tugaganida A tomon 30 ta, B tomon 20 ta tosh olishi mumkin. Agar marra 100 ta tosh etib belgilangan bo'lsa, u holda, A tomon yana 70 ta, B tomon esa, 80 ta tosh yutishi kerak bo'ladi. Shu bois, o'yin yana bir necha marta takrorlanadi¹⁴⁹.

O'yinni davom ettirish uchun ikki tomon chuqurchalarga yuqoridagi tartibda toshlarni yana qaytadan beshtadan solib qo'yishadi. O'yin boshida qanday o'ynalgan bo'lsa, shu holicha qaytariladi. To marrada belgilangan 100 yoki 200 dona toshni yiqqunga qadar o'yin davom etadi. Qaysi tomon marraga yetadigan miqdordagi toshni yig'ib ololsa, u g'olib hisoblanadi¹⁵⁰.

Bu o'yin biroz murakkabroq, uni oddiy tilda tushuntirish ham qiyin kechadi. Lekin o'zlashtirib olinsa juda oson bo'ladi. O'yinni o'tkazishdan maqsad – odamlarni hisob-kitob qilish, yetti o'ylab bir kesishga o'rgatishdir.

Surxon vohasida yashovchi aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, bog'dorchilik bo'lganligi tufayli "kamon o'yini", "uloq va oshiq o'yinlari", "quloq cho'zma", "tortishmachoq", "To'piq o'yini", "Xumor", "To'rt oshiq", "Podachi o'yini", "Chanta", "Jumutoq", "Beshtosh", "Yong'oq o'yini", "Piyoda poyga", "Yeshak ko'pkari", "Handalaki", "Qo'lga urib qochish", "O'ymanko'ch", "Qorxat", "oq terakmi-ko'k terak", "xola-xola", "dasta o'yini", "par tepish"¹⁵¹ kabilar keng tarqalganligi aniqlandi.

Surxon vohasi qishloqlarida o'n yetti xil mashq orqali bajariladigan "pichoq o'yini", loy bilan o'ynaladigan "porsin-pars", "yong'oq", "par tepish" kabi o'yinlar keng tarqalgan.

Surxon vohasi Boysun va Denov tumanlarining tojik millatiga mansub, aholi yashaydigan qishloqlarida kattalar va bolalar orasida o'ynaladigan o'ttiz besh tur o'yinlar aniqlandi. Bunday o'yinlar faqat tojik millatiga mansub aholi orasida o'ynaladigan, tojikcha iboralar bilan nomlanadigan. "Barg koshanak", "parbozi" (par o'yini), "qushakbozi" (qum o'yini), "Xonadaroyak", "Lappakbozi", "Tuftaka", "chimpo'shak" (chim kiydi), "qumkafanak" (qumda sudralish musobakasi), "dandon ba qoshiq" (tishda qoshiq ushlab turish) kabi o'yinlar ajralib turadi. Bu kabi lokal hamda umumiy xarakterga ega bo'lgan o'yinlarning turlari, o'ynalish qoidalarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish jarayoniga tadqiqotda alohida ahamiyat berildi¹⁵².

Xulosa qilib aytganda, bu xalq o'yinlari Surxon vohasi aholisi orasida qadim zamondan boshlab shakllangan va tarqalgan bo'lib, davrlar o'tishi bilan

¹⁴⁹ Dala yozuvlari. Jarqo'rg'on tumani. Madaniyat, Hayitobod mahallalari. 2022-yil.

¹⁵⁰ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog'i, 2019-yil.

¹⁵¹ Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho'rob qishlog'i. 2021-yil.

¹⁵² Dala yozuvlari. Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun va Boysun tumanlari. 2019-2023 yillar.

ajdodlardan avlodlarga o'tib takomillashib, sayqallanib borgan. O'yinlarning tarixiy ildizlari va ularning kelib chiqishi jarayoni voha aholisining turmush tarzi, xo'jalik hayoti va qadimgi diniy qarashlari bilan uzviy ravishda bog'liq bu o'yinlar to'y-tomoshalarda, Navro'z bayrami va boshqa sayllarda xalqning quvnoqlik, xushchaqchaqlik kayfiyatini oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Боровков А.К. Аист и связанные с ним приметы и поверья у местного населения //Сб. научного кружка при востфаке САГУ. Вып. II. – Ташкент, 1928.
2. Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Oqtumshuq qishlog'i. 2020-yil.
3. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Avlod, Sariosiyo, Passurxi qishlog'i. 2019-yil.
4. Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Saksonkapa, Obodon qishloqlari. 2022-yil.
5. Dala yozuvlari, Angor tumani, Zang qishlog'i, 2023-yil.
6. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Sherobod mahallasi, 2020-yil.
7. Jo'rayev M. O'zbek xalk ertaklarida sexrli raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991.
8. Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Oqtumshuq qishlog'i. 2020-yil.
9. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I jild. –Toshkent: Fan, 1960.
10. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog'i, 2022-yil.
11. Sherobod tumani Qizilolma qishlog'i, 2022-yil.
12. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo'janqon qishlog'i, 2023-yil.
13. Dala yozuvlari, Termiz tumani, M.Eshtemirov nomli mahalla, 2022-yil.
14. Dala yozuvlari, Termiz tumani, M.Eshtemirov nomli mahalla, 2022-yil.
15. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo'janqon qishlog'i, 2023-yil.
16. Dala yozuvlari. Sariosiyo tumani Sangardak qishlog'i, 2021-yil.
17. Dala yozuvlari. Termiz tumani Manguzar mahallasi. 2021-yil.
18. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani Sho'rob qishlog'i. 2021-yil.